



THE CONTRIBUTION OF SCIENTISTS TO THE DEVELOPMENT OF EXACT SCIENCES DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE. (ON THE EXAMPLE OF KARSHI STATE UNIVERSITY)

Dildora Baratova

Lecturer

Karshi State University

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Jadid, educators, Science and Women, Creative Women, Inventive Women, women's association Olima, women, research work.

Received: 08.12.24

Accepted: 10.12.24

Published: 12.12.24

Abstract: The article entitled “The contribution of scientists to the development of exact sciences during the years of independence. (On the example of Karshi State University)” analyzes the achievements of the Republic of Uzbekistan in the field of exact sciences after its independence and the role of scientists in this process. This article, in particular, studies the scientific research work carried out at Karshi State University and their contribution to the development of national sciences. The article provides detailed information about the work carried out in various faculties and scientific centers of the university, as well as highlights important discoveries and innovations achieved as a result of this work. The study shows that the contributions of our scientists to the exact sciences during the years of independence aroused great interest not only in the scientific community, but also among the general public. The article also contains recommendations and prospects for future scientific research.

MUSTAQILLIK YILLARIDA OLIMALARNING ANIQ FANLAR RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI. (QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI MISOLIDA)

Dildora Baratova

o‘qituvchi

Qarshi davlat universisteti

Qarshi, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Jadid, maʼrifatparvarlar, “Ilm fan va ayollar”, “Ijodkor ayollar”, “Ixtirochi ayollar”, “Olima”ayollar uyushmasi, xotin-qizlar, ilmiy-tadqiqot ishlari.

Annotatsiya: “Mustaqillik yillarida olimlarning aniq fanlar rivojiga qoʻshgan hissasi. (Qarshi davlat universiteti misolida)” nomli maqola, Oʻzbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganidan keyin aniq fanlar sohasida erishilgan yutuqlar va bu jarayonda olimlarning rolini tahlil qiladi. Ushbu maqola, ayniqsa, Qarshi Davlat Universitetida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini va ularning milliy fanlar rivojiga qoʻshgan hissasini oʻrganadi. Maqola, universitetning turli fakultetlari va ilmiy markazlarida olib borilgan ishlar haqida batafsil maʼlumot beradi, shuningdek, ushbu ishlar natijasida qoʻlga kiritilgan muhim kashfiyotlar va innovatsiyalar yoritilgan. Tadqiqot shuni koʻrsatadiki, mustaqillik yillarida olimlarimizning aniq fanlarga qoʻshgan hissalarini nafaqat ilmiy hamjamiyatda, balki keng jamoatchilik orasida ham katta qiziqish uygʻotgan. Maqola, shu bilan birga, kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar uchun tavsiyalar va istiqbollarni ham oʻz ichiga oladi.

**ВКЛАД УЧЕНЫХ В РАЗВИТИЕ ТОЧНЫХ НАУК В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ.
(НА ПРИМЕРЕ КАРШИНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА)**

Дилдора Баратова

Преподаватель

Каршинского государственного университета

Кариши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Джадид, просветительницы, «Наука и женщины», «Творческие женщины», «Изобретательные женщины», женское объединение «Олима», женщины, исследовательские работы.

Аннотация: «Вклад ученых в развитие точных наук в годы независимости. (На примере Каршинского государственного университета)», анализирует достижения Республики Узбекистан в области точных наук после обретения независимости и роль ученых в этом процессе. В этой статье исследуются исследования и разработки, особенно в Каршинском государственном университете, и их вклад в развитие национальных наук. В статье подробно описывается работа, проделанная на различных факультетах и исследовательских центрах университета, а также освещаются важные открытия и инновации, полученные в результате этой работы. Исследование показывает, что вклад наших ученых в точные науки в годы

независимости вызвал большой интерес не только в научном сообществе, но и среди широкой общественности. Однако в статье также содержатся рекомендации и перспективы для будущих научных исследований.

Kirish. Bugungi kunga kelib, xotin-qizlarga bo‘lgan munosabatdagi o‘zgarishlar va gender tenglikni ta’minlash masalalasi barqaror rivojlanish omili sifatida e’tirof etilib, ularning barcha sohalarda mehnat qilishlari uchun keng imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Shu boisdan ham xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning huquq va erkinliklarini kafolatlash, sog‘lom avlod tarbiyasi, xotin-qizlar mehnatini rag‘batlantirish davr talabiga aylandi. O‘tmish tariximizdan ham ma’lumki, ming yillar davomida har bir jamiyatning madaniy darajasi uning ma’naviy barkamolligi xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati bilan belgilangan. Ayolni e’zozlash, unga ehtirom ko‘rsatish o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan eng buyuk qariyatlardan hisoblanadi.

XX asr boshlarida xotin-qizlarning o‘qimishli, ilmi, madaniyatli, o‘z jamiyati uchun zarur va foydali insonlar bo‘lib yetishishlari kabi masalalar jadid ma’rifatparvarlarining qarashlarida ham namoyon bo‘ldi. Jadidlar oila va jamiyatda o‘qimishli ayolning o‘rni hamda mavqie o‘zgacha ekanligini tushuntirishga xarakat qilganlar. Bu haqda manbalardan quyidagilarni bilish mumkin: “... xotunlarni o‘qitmoq va alarning aqlariga jilo bermoq va erlari birla yaxshi muammolar qilmoq va bolalarini tarbiyat qilmoq va zindakorhilikni yaxshi bilmaklari xususida ta’lim albatta zarurdir” [1:250].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan yurtimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash masalasiga alohida e’tibor qaratish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu borada bir qancha qonunlar va qarorlar qabul qilindi. Prezident Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek: “... bugun O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi – ayollarimizga e’tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni, maqomini mustahkamlash, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlashdir”[2:59]. Mamlakatimizda 17 mln.dan ziyod xotin qizlarning huquq va erkinliklarini ta’minlovchi 22 ta qonun va 30 dan ziyod me’yoriy hujjatlarning e’lon qilinganligi mazkur soha davlatning ustuvor vazifalaridan biri ekanligidan dalolat beradi[3:32]. Shuningdek, talaba, ilmiy tadqiqotchi va mustaqil izlanuvchi, doktorant qizlarning intellektual salohiyati, ongi va tafakkurini yuksaltirishda respublikada jamoatchilik asosida tuzilgan uyushmalar – “Ilm fan va ayollar”, “Ijodkor ayollar”, “Ixtirochi ayollar”, “Olima” (1992 yil 9 yanvarda tashkil topgan) ayollar ushmasi faoliyati alohida muhim ahamiyatga ega. Olima ayollar safining kengayishi jamiyatda xotin-qizlar nufuzining ortib borishiga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. 2012-yil 22-oktabrda Qashqadaryo viloyatida “Olima” ayollar uyushmasi ish boshladi[4:7]. Uyushma o‘z tarkibiga Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi Davlat universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari instituti Qarshi filiali, akademik-litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritayotgan ilmiy darajaga ega xotin-qizlarni hamda ilmiy tadqiqotchilarni o‘z ichiga qamrab oldi. Mustaqillikkacha Qashqadaryo viloyatida jami 19 nafar ilmiy darajali ayollar bor edi. 2012 – yilda viloyat olimlari soni 70 nafar bo‘lgan bo‘lsa, 2021- yilga kelib ularning soni 148 nafarni tashkil etdi

O‘zbekistonda ilm-fan rivoji uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ilmiy va innovatsion faoliyatning hukumat tomonidan qo‘llab quvvatlanishi, barcha sohalarda jumladan aniq va texnik sohalarga xizmat qiluvchi fanlarni hozirgi zamon talablariga mos moddiy texnik resurslar bilan ta’minlash, mutaxassis kadrlar tayyorlash kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu jarayonda aniq fanlar yo‘nalishida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar ham faol ishtirok etib, ilm-fan rivojiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Ana shunday olimlar orasida aniq fanlar yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirib kelayotgan xotin-qizlar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Jumladan, pedagogika fanlari doktori, professor Nasiba Qayumova aniq fanlar rivojiga hissa qo‘shib kelayotgan olimlardan hisoblanadi[5:23]. 2008-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida 13.00.02- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligi bo‘yicha nomzodlik ishini himoya qilib, olima degan sharaflil nomga ega bo‘ladi. 2022-yilga kelib, “Elektron ta’lim muhitida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini integrativ yondashuv asosida tayyorlash metodikasini takomillashtirish” mavzusida 13.00.06 – elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha fan doktori (DSc) ilmiy ishini himoya qiladi. N.Qayumova aynan ana shu mutaxassislik bo‘yicha respublikada birinchi fan doktori hisoblanadi. Olima 200 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar muallifi hisoblanadi. 2 ta darslik, 3 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta monografiya, 8 ta uslubiy qo‘llanma, 10 ta elektron ta’lim resurslariga egalik guvohnomasi, 15 dan ortiq xalqaro, 30 dan ortiq OAK tassarufigidagi maqolalar shular jumlasidandir. Shuningdek, olima Nizomiy nomidagi TDPI, QarDu fan doktori (DSc), falsafa fan doktori (PhD) beruvchi ixtisoslashgan kengashning seminar a’zosi ham hisoblanadi.

Qashqadaryolik olima ayollardan yana biri fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent Mastura Rustamovadir. Olima 2018-yilda “Yuqori yarim fazoda Martinelli-Boxner integral formulasi” mavzusidagi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi. 2020-yilda dotsent ilmiy darajasiga ega bo‘ldi. Mastura Rustamova Qashqadaryo viloyatida birinchi bo‘lib matematika fani bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishini olib borgan, dissertatsiya yozib, muvaffaqiyatli himoya qilgan, falsafa doktori ilmiy darajasi va dotsent ilmiy unvonini olgan, “O‘zbekiston matematiklar jamiyati” a’zosi bo‘lgan, olimlardan hisoblanadi. Mastura Rustamovaning tadqiqot ishlari

matematikaning hozirgi davrda keng tatbiq etilayotgan kompleks analizning dolzarab masalalariga bag'ishlangan. Olima tomonidan olingan tadqiqot natijalari Rossiya FA yetakchi olimlarining monografiyalariga kiritilgan, jahonning eng global "elibrary.ru", "Math-Net.Ru" ilmiy elektron kutubxonalaridan joy olgan. Olimaning matematika sohasida 50 dan ortiq ilmiy ishlari chop etilgan, 1 ta monografiya, 2 ta risola, 1 ta elektron-o'quv qo'llanma, 2 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, 15 ga yaqin xalqaro ilmiy-anjumanlarda ma'ruzalar 20 dan ortiq respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalari shular jumlasidandir. Ilmiy maqolalari Germaniya, Rossiya, Amerika, Chexiya, Avstriya va boshqa ko'plab xorijiy mamlakatlarning ilmiy jurnallarida chop etilgan. Olima QarDU huzuridagi fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi Ixtisoslashgan Ilmiy Kengash a'zosi hisoblanadi.

Aniq fanlar yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borayotgan olim ayollardan yana biri Rahima Nurmamatova hisoblanadi. Olima Kasb ta'limi: suv, issiqlik, gaz ta'minoti, kanalizatsiya va ventilyatsiya mutaxassisligi bo'yicha tahsil olgan bo'lib, ilmiy sohadagi ishlari aynan mazkur yo'nalishda davom ettirdi. 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Ilmiy kengashda "Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishning xavflilik omillarini kamaytirish" mavzusidagi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'ldi. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi huzuridagi bir martalik Ilmiy kengashda "05.10.02 - Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong'in, sanoat, yadro va radiatsiya xavfsizligi" hamda "05.10.01- Mehnatni muhofaza qilish va inson faoliyati xavfsizligi ixtisosliklaridan "Iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarining portlash xavfini kamaytirishni nazariy va eksperimental asoslarini takomillashtirish" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Texnika fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi. Olimaning 100 dan ortiq ilmiy ishlari chop etildi. "Mehnat muhofazasi va inson faoliyati xavfsizligi" hamda "Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong'in, sanoat, yadro va radiatsiya xavfsizligi" mavzulari bo'yicha 2 ta darslik, 3 ta o'quv qo'llanma, 3 ta monografiya, 3 ta risola, 7 ta ma'ruzalar matni, 11 ta o'quv, o'quv- uslubiy qo'llanma, ko'rsatmalar, 20 ga yaqin xalqaro anjuman ma'ruzalari, 60 ga yaqin badiiy, publitsistik va tahliliy maqolalar muallifidir. Ilmiy maqolalari AQSh, Germaniya, Rossiya, Chexiya, Polsha, Hindiston va boshqa ko'plab xorijiy mamlakatlarning ilmiy jurnallarida chop etilgan.

Aniq fanlar yo'nalishida faoliyat olib borayotgan olimalardan yana biri Gulbaxor Ishmurodova hisoblanadi. Olima fizika ixtisosligini imtiyozli diplom bilan tugatib, "Fizika o'qitish nazariyasi va metodikasi" bo'yicha aspiranturada tahsil oladi. 2005- yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ixtisoslashgan kengashida pedagogika fanlari doktori, professor D.Sh.Shodiev rahbarligida "Maktabda mexanika ta'lim mazmuni va uni o'qitish metodikasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, pedagogika

fanlari nomzodi ilmiy darajasini oladi. 1999-2009 o'quv yillarida Qarshi davlat universiteti Umumtexnika fanlari kafedrasida o'qituvchi, katta o'qituvchi, 2009-2014-o'quv yillarda Umumtexnika fanlari va mehnat kafedrasida kafedra mudiri lavozimida faoliyat ko'rsatdi. 2017-2019 o'quv yillarida Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Fizika kafedrasida kafedra mudiri lavozimida ish olib bordi. Gulbaxor Ishmurodova ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida 3 ta monografiya, Oliy ta'lim muassasalari texnologik ta'lim bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun "Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash" nomli 1 ta o'quv qo'llanma, "Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash" nomli 1-2- qism darslik, 3 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, xalqaro ilmiy va OAK ro'yxatidan o'tgan respublikaning nufuzli jurnallarida 20 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqolalar, xalqaro, respublika, mintaqaviy va oliy o'quv yurtlari miqyosidagi o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlar to'plamlarida 60 dan ortiq tezislarni chop ettirgan olimlardan hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Xullas, mustaqillik yillarida ta'lim sohasi islohotlarida xotin-qizlar faoliyati kengayib bordi. "Ilm fan va ayollar", "Ijodkor ayollar", "Ixtirochi ayollar", "Olima" ayollar ushmasi faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Istiqloq yillarida aniq fanlar yo'nalishida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirayotgan olimlar safi kengayib bordi. Olima xotin-qizlar tomonidan ko'plab darsliklar, o'quv qo'llanmalar, PhD va DSc dissertatsiya himoyalari amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2021. – B.250.
2. Rahmonqulova O. O'zbekiston janubiy viloyatlari ta'lim sohasini rivojlantirishda xotin-qizlarning o'rni // O'tmishga nazar. 2021 yil 4-son. – B.59 – 60.
3. "Olima" 20 yoshda //O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar uyushmasi hisoboti, 2012. B.32.
4. Ergasheva Yu.A., Imomova G.M. Qashqadaryo ilm yulduzlari.- Qarshi 2021. - 403 B.
5. Qashqadaryo ilm yulduzlari: kitob-albom /Y.A.Ergasheva, G.M.Imomova. – Qarshi: "Intellekt" nashriyoti, 2023. – 152 B.